Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 17-sentabr 2026-yil

MAVSUMIY NARXLASH MEXANIZMI VA BUXORO VILOYATI MEHMONXONA XO‘JALIGIDA SIFAT TABAQALANISHINING PASAYISH MUAMMOSI

Xalimov G‘ayrat
Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston
e-mail: khalimovgayrat@outlook.com

Annotatsiya: tezisda Buxoro viloyati mehmonxona xo‘jaligining 2017–2026 yillardagi rasmiy statistik ko‘rsatkichlari asosida joylashtirish quvvatlarining tez sur'atlarda (6,5 baravar) o‘sishi fonida yulduzli, ya'ni sifat toifasiga ega mehmonxonalar ulushining keskin qisqarishi muammosi tahlil qilinadi. Aniqlanishicha, 3–4 yulduzli mehmonxonalar ulushi 2017 yildagi 18,4 foizdan 2025 yilda 0,9 foizgacha pasaygan. Bu holat mavsumiy narxlash (dynamic/differentiated pricing) mexanizmini joriy etish uchun zarur bo‘lgan tarif segmentatsiyasi infratuzilmasining amalda deyarli mavjud emasligini ko‘rsatadi. Maqolada ushbu muammoni bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan.


Kalit so‘zlar: mavsumiy narxlash, mehmonxona xo‘jaligi, sifat toifalari, tarif segmentatsiyasi, nomavsumiylik davri.

Turizm iqtisodiyotida mavsumiylikni yumshatishning eng keng qo‘llaniladigan vositalaridan biri, narxlashda mavsumiy tabaqalashtirish, ya'ni past mavsumda tariflarni kamaytirish va yuqori mavsumda oshirish orqali talabni vaqt bo‘yicha tekislashdir (BarOn, 1975; Karamustafa, 2010). Biroq bunday mexanizmning amaliy samaradorligi mehmonxonalar tarmog‘ining sifat va narx bo‘yicha tabaqalanish darajasiga bevosita bog‘liq: faqat aniq belgilangan xizmat toifalari (yulduzli tasniflash tizimi) mavjud bo‘lgan taqdirdagina operatorlar mavsumga qarab tarif tabaqalashtirishni oqilona amalga oshirishlari mumkin (Koenig-Lewis & Bischoff, 2005). Aks holda, bir xil (tasniflanmagan) toifadagi ob'ektlar o‘rtasidagi narx raqobati mavsumiy tabaqalashtirishni emas, balki

umumiy narx pasayishini keltirib chiqarishi mumkin.

Ushbu tezisning maqsadi, Buxoro viloyati mehmonxona xo‘jaligining 2017–2026 yillardagi rasmiy statistikasi asosida sifat toifalari (yulduzli tasniflash) bo‘yicha tarkibiy dinamikani tahlil qilish va mavsumiy narxlash mexanizmini joriy etish uchun zarur bo‘lgan tarkibiy shart-sharoitlar mavjudligini baholashdan iborat.

Rasmiy ma'lumotlarga ko‘ra, Buxoro viloyatida jami joylashtirish vositalari soni 2017–2026 yillarda 114 tadan 739 taga, ya'ni 548 foizga (6,5 baravar) oshgan. Shu bilan birga, 3–4 yulduzli ("premium") mehmonxonalar ulushi keskin pasaygan: 2017 yilda ular jami joylashtirish vositalarining 18,4 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yildan boshlab bu ko‘rsatkich 1 foizdan pastga tushib, 2025 yilga kelib atigi 0,9 foizni tashkil etgan (1-jadval, 1-rasm).



1-rasm. 3-4 yulduzli mehmonxonalarning jami joylashtirish vositalari ichidagi ulushi, 2017-2026 yy. (%)

1-jadval

Buxoro viloyatida joylashtirish vositalari va yulduzli mehmonxonalar dinamikasi, 2017–2026 yy.

Yil	Jami joylashtirish vositalari (birlik)	4* mehmonxonalar (birlik)	3* mehmonxonalar (birlik)	Premium (3-4*) ulushi (%)
2017	114	3	18	18,4
2018	168	1	2	1,8
2019	337	1	0	0,3
2020	372	1	1	0,5
2021	415	1	1	0,5
2022	485	2	4	1,2
2023	544	2	4	1,1
2024	607	2	4	1,0
2025	688	2	4	0,9
2026 (prognoz)	739	2	4	0,8

Boshqacha aytganda, sohaning umumiy kengayishi 99 foizdan ortiq darajada tasniflanmagan (“oddiy”) toifadagi ob'ektlar hisobidan ta'minlanmoqda. 2025 yilgi tarkibga nazar tashlasak (2-rasm), 688 ta joylashtirish vositasining 681 tasi (98,98%) hech qanday sifat toifasiga ega emas, atigi 6 tasi (0,87%) 3-4 yulduzli va 1 tasi (0,15%) 2 yulduzli toifada ro‘yxatga olingan.


Bu holatning amaliy oqibati shundaki, hozirgi tarkibda mehmonxonalar o‘rtasida narx segmentatsiyasi deyarli mavjud emas, mehmonxonalarning qariyb barchasi bir xil (tasniflanmagan) toifada raqobatlashadi, bu esa mavsumiy tabaqalashtirilgan tarif siyosatini (masalan, "yuqori mavsumda 4* uchun premium narx, past mavsumda 3* uchun chegirma" kabi diversifikatsiyalangan modellarni) amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tarkibiy

asosning yo‘qligini anglatadi. Stojčić, Mikulić va Vizek (2022) ko‘rsatganidek, aynan shunday tarkibiy zaiflik mavsumiylikning kapitaldan notekis foydalanish va daromadlar beqarorligiga olib keluvchi ta'sirini kuchaytiradi.

Xalqaro tajriba va muhokama. Xalqaro amaliyotda mavsumiy narxlash odatda aniq tasniflangan xizmat toifalari doirasida amalga oshiriladi: masalan, Yevropa mehmonxona tarmoqlarida 4-5 yulduzli ob'ektlar yuqori mavsumda maksimal tarifni qo‘llasa, past mavsumda maqsadli chegirma va qo‘shimcha xizmat paketlari (spa, ekskursiya, uzoq muddatli turar joy) orqali talabni rag‘batlantiradi (Karamustafa, 2010). Bunday model faqat aniq narx-sifat zinapoyasi (price-quality ladder) mavjud bo‘lgan taqdirdagina ishlaydi. Buxoro misolida esa, tasniflanmagan segmentning 99 foizga yaqinligi shuni ko‘rsatadiki, narx raqobati asosan gorizontal (bir xil toifadagi ob'ektlar o‘rtasidagi) tusda kechmoqda, bu esa mavsumiy tabaqalashtirish o‘rniga umumiy narx pasayishi yoki nazoratsiz narx o‘sishi xavfini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, tasniflashtirish jarayonining o‘zi ma'lum xarajat va ma'muriy to‘siqlar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, kichik va o‘rta mehmonxona egalari buni amalga oshirishga unchalik moyil emas. Shu boisdan, davlat tomonidan tasniflashtirish xarajatlarini qisman qoplash yoki tezlashtirilgan (soddalashtirilgan) protsedura joriy etish muhim rag‘batlantiruvchi omil bo‘lishi mumkin. Bunday chora Buxoro viloyati hokimligi tomonidan qabul qilingan investitsiya rag‘batlantirish siyosati (543-son Qaror, 2022) doirasiga tabiiy ravishda integratsiya qilinishi mumkin.

Joylashtirish vositalari turlari bo‘yicha tarkibiy siljish. Sifat toifalarining pasayishi sabablarini chuqurroq tushunish uchun joylashtirish vositalarining turlar (mehmonxona, mehmon uyi/oilaviy mehmon uyi, hostel) bo‘yicha tarkibiy dinamikasini alohida ko‘rib chiqish zarur (3-rasm). Ma'lumotlarga ko‘ra, 2017 yilda joylashtirish vositalarining 93,0 foizini an'anaviy mehmonxonalar tashkil etgan bo‘lsa, 2025 yilga kelib bu ko‘rsatkich 33,1 foizgacha pasaygan. Shu bilan bir vaqtda, mehmon uyi va oilaviy mehmon uylari ulushi 7,0 foizdan 49,4 foizgacha, hostel va yotoqxonalar ulushi esa 0 foizdan 15,4 foizgacha oshgan.



3-rasm. Buxoro viloyati joylashtirish vositalarining turlar bo‘yicha tarkibi

Boshqacha aytganda, so‘nggi to‘qqiz yilda sohaning kvantitativ o‘sishi asosan kichik hajmdagi, oilaviy boshqariladigan va rasmiy tasniflash tizimidan tashqarida qoladigan segmentlar (mehmon uylari, hostellar) hisobidan ta'minlangan, professional boshqariladigan mehmonxonalar ulushi esa nisbiy jihatdan qisqargan. Bu topilma yulduzli mehmonxonalar ulushining pasayishini yanada aniqroq izohlaydi: mavsumiy narxlash mexanizmi odatda markazlashgan boshqaruv tizimiga ega mehmonxona tarmoqlari yoki yagona operatorlar tomonidan amalga oshiriladi (Karamustafa, 2010), biroq yuzlab mayda, mustaqil mehmon uyi va hostel egalari o‘rtasida bunday muvofiqlashtirilgan tarif siyosatini joriy etish ancha murakkab tashkiliy vazifa hisoblanadi. Shu sababli, individual operatorlar darajasidagi narx tabaqalashtirish o‘rniga, hududiy turizm klasteri yoki kooperativ platforma (masalan, birgalikda ishlaydigan onlayn bron qilish tizimi) orqali kollektiv mavsumiy tarif siyosatini yuritish muqobil yechim bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Buxoro viloyati mehmonxona xo‘jaligida mavsumiy narxlash mexanizmini joriy etishning asosiy to‘sig‘i, bu talabning o‘zi emas, balki taklif tomonidagi sifat va tashkiliy tabaqalanishning yo‘qligidir. Shu sababli quyidagilar tavsiya etiladi: birinchidan, mehmonxonalarni yulduzli tasniflashdan o‘tkazishni rag‘batlantiruvchi

maqsadli davlat dasturini joriy etish; ikkinchidan, sertifikatlashtirilgan 3–4 yulduzli mehmonxonalar orasida pilot tarzda mavsumiy tarif dasturini sinovdan o‘tkazish; uchinchidan, sertifikatlashtirish jarayonini investitsiya rag‘batlantirish choralari (soliq imtiyozlari) bilan bog‘lash; to‘rtinchidan, mayda mehmon uyi va hostel operatorlarini birlashtiruvchi hududiy turizm klasteri yoki kooperativ bron qilish platformasi orqali kollektiv mavsumiy narx siyosatini yo‘lga qo‘yish. Ushbu chora-tadbirlar sifat va tashkiliy tabaqalanishni tiklash orqali mavsumiy narxlash mexanizmi uchun zarur tarkibiy asosni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. BarOn, R.R.V. (1975). Seasonality in Tourism: A Guide to the Analysis of Seasonality and Trends for Policy Making. London: Economist Intelligence Unit.

2. Karamustafa, K. (2010). Measuring the seasonality in tourism with the comparison of different methods. EuroMed Journal of Business, 5(2).

3. Koenig-Lewis, N., & Bischoff, E.E. (2005). Seasonality research: The state of the art. International Journal of Tourism Research, 7(4-5), 201-219.

4. Stojčić, N., Mikulić, J., & Vizek, M. (2022). High season, low growth: The impact of tourism seasonality and vulnerability to tourism on the emergence of high-growth firms. Tourism Management, 89, 104455.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 30 apreldagi PQ-161-son Qarori. "Hududlarda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va sohada loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida".

6. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 sentyabrdagi 543-son Qarori. "2022–2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida".

7. Buxoro viloyati hokimligi. Buxoro viloyatida turizm sohasi ko‘rsatkichlari (rasmiy statistik ma'lumotnoma), 2017–2026 yy.